

KOMIL INSON G'OYASINI TAKOMILLASHTIRISHDA TA'LIM MUASSASALARINING O'RNI

Axmadova Zilola Iskandar qizi

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar: Komillik, barkamollik, tasavvuf, ideallik, shaxs kamoloti, umumbashariy qadriyatlar, sarkardalik, oila ma'naviyati.

O'zbekiston mustaqilligining dastlabki yillaridan milliy qadriyatlarning nazariy asosini tashkil etuvchi komil inson g'oyasini qayta takomillashtirishga bo'lgan e'tibor kuchaydi. Chunki mamlakatimiz taraqqiyoti fuqorolarimizning ma'naviy intellektual salohiyatining qanchalik yuqoriligiga bog'liq. Komil inson g'oyasi hamma vaqt ham dolzarb ahamiyatga ega bo'lib ayniqsa bugungi globallashuv global jamiyatda ustuvorlashib bormoqda. Inson, jamiyat va davlat konsepsiyasi mohiyatida bu yaqqol namoyon bo'lib turibdi. Biz o'z ishimizda avvalo shu masalalarga e'tibor qratamiz va mavzuimiz doirasida ilmiy asoslarda yoritib beramiz.

ANNOTATION

Key words: perfection, mysticism, idealism, personality maturation, universal values.

From the first years of independence of Uzbekistan, there has been a growing focus on redefining the idea of the perfect man, which is the theoretical basis of national values. Because the development of our country depends on the high level of spiritual and intellectual potential of our citizens. The idea of a perfect man has always been relevant, especially in today's globalized world. This is evident in the essence of the concept of man, society and the state. We focus on these issues in our work and cover them on a scientific basis.

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова: совершенство, мистика, идеализм, совершенство, универсальные ценности

С первых лет независимости Узбекистана все большее внимание уделяется переосмыслению представления о совершенном человеке, являющемся теоретической основой национальных ценностей. Поскольку развитие нашей страны зависит от высокого уровня духовного и интеллектуального потенциала наших граждан, представление о совершенном человеке всегда было актуальным, особенно в современном глобализированном мире. Это проявляется в сущности понятия человека, общества и государства, именно этим вопросам мы уделяем внимание в своей работе и освещаем их на научной основе.

Komil inson g'oyasining takomillashish makoni Movaraunnahr hududiga to'g'ri keladi. Ko'plab tadqiqotchilar tomonidan komillikning shakllanish hududi Arabiston yarim oroli deyilsa-da, uning rivojlanish o'chog'ini Markaziy Osiyo mintaqasi bilan bog'lashadi. Islom ta'limoti VII asrning boshlarida paydo bo'ldi va IX asrning boshlarida tasavvuf bilan birga yuzaga kelgan deyiladi. Komillik shunchaki tarbiya jarayonini o'zida takomillashmagan, balki ta'limning samarasi orqali yuqori cho'qqiga ko'tarildi. Markaziy Osiyo hududi¹da qadimdan ilmiy intellekt yuqori bo'lgan. Hududning ma'naviy salohiyati Zardo'shtiylik ta'limoti asosida rivojlanib kelgan. Ushbu ta'limot o'z davrida ham, bugungi davrda ham yuqori ilmiylik nazariyasiga egaligi bilan ajralib turadi. Shu jihatdan ham Zardo'shtiylik ta'limoti jahon ilmiy-ma'naviy merosiga ijobiy ta'sirini o'tkazib kelgan. Bu haqda falsafa fanlari doktori B.Omonov Markaziy Osiyo mintaqasini – IX-XII asrlarda jahon sivilizatsiyasini boshlab bergan hudud sifatida tarixda qoldi. Ba'zi tadqiqotchilar IX-XII asr sivilizatsiyasini arablar siyosati natijasi deya baholashadi. Bu bir tomondan nisbiy xulosalarni keltiradi. Mintaqada qadimdan katta ilmiy maktab bo'lgan Zardo'shtiylik ta'limoti ancha takomillashgan bo'lib, Aleksandr Makedoniskiy bosqini davrida Ellin madaniyati bilan sentizlashdi. Arablar bosqini bilan esa mahalliy intellektualizatsiya Islom ta'limoti bilan qorishishi evaziga yuqori ilmiy salohiyatli hududga aylandi. Natijada Islom

¹ Faqat O'zbekiston hududi bilan cheklanish mavzuning yoritilishini bir tomonlam chegaralab qo'yishi va tahlildan chalg'itishi mumkin.

<https://scientific-jl.com/>

madaniyati eng yuqori bosqichga ko'tarildi. Arablarning Ispaniyaga kirib borishi esa, jahon sivilizatsiyasini ko'tarilishiga olib keldi. Shu nuqtai nazardan – agar Markaziy Osiyo ilmiy tafakkuri bo'lmaganda edi – islom madaniyati bunchalik obro' qozonmas edi, agar islom madaniyati bo'lmaganda – dunyo bunchalik taraqqiyotga erisholmagan bo'lar edi², degan xulosaga keladi. Ushbu fikrlardan kelib chiqadigan bo'lsak, komillik g'oyasining takomillashish makoni o'z-o'zidan Markaziy Osiyo mintaqasi, ya'ni O'zbekiston hududiga to'g'ri keladi.

Komillik g'oyasining takomillashtirish jarayonini ta'lim tizimini isloh etish orqali amalga oshirish samarali va to'g'ri yo'l deb e'tirof etish maqsadga muvofiq. Ta'limni isloh etmasdan hech qaysi sohani rivojlantirib bo'lmaydi. Ta'lim tizimi shunchaki rivojlanadigan soha emas. Ta'lim davlat tomonidan nazorat qilinadigan va barcha shart-sharoitlarni yaratishi va bosh islohotchiligini davom ettirishi zaruriyatga aylangan. O'zbekiston bugungi kunda xalqaro standartlarga mos ta'lim tizimini joriy etish yo'lidan bormoqda. Chunki, jahonda ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy, madaniy, siyosiy va geosiyosiy raqobat tobora kuchayib borayotganini barcha sohalarni qayta isloh qilishni, davlatni yanada barqaror va jadal sur'atlar bilan rivojlantirish uchun mutlaqo yangicha strategik yondashuv va tamoyillarni ishlab chiqish va amalga oshirishni taqozo etmoqda. 2017 – 2021 yillarda O'zbekistonni rivojlantirish bo'yicha "Harakatlar strategiyasi"da ta'lim-tarbiyani isloh etish orqali, ma'naviy-ma'rifiy ishlarni zamonaviylashtirish konsepsiyasi ishlab chiqildi. Harakatlar strategiyasining to'rtinchi yo'nalishi (IV. Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari) 4.4-bandida, ta'lim va fan sohasini rivojlantirish: uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish yo'lini davom ettirish, sifatli ta'lim xizmatlariga imkoniyatlarni oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga muvofiq yuqori malakali kadrlarni tayyorlash; ta'lim muassasalarini qurish, rekonstruksiya qilish, kapital ta'mirlash, ularni zamonaviy o'quv va laboratoriya uskunalari, kompyuter texnikasi va o'quv-metodik qo'llanmalar bilan jihozlash bo'yicha ishlarni amalga oshirish orqali ularning

² Omonov B., Ochilova G. Markaziy Osiyo mintaqasining tabiiy-geografik va geosiyosiy imkoniyatlari// QarDU xabarlari/2018. 4(38). –B.95-198.

<https://scientific-jl.com/>

moddiy-texnik bazasini mustahkamlash yuzasidan aniq maqsadga qaratilgan chora-tadbirlarni ko'rish; bolalar maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'ini kengaytirish, bolalarning har tomonlama intellektual, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun maktabgacha ta'lim muassasalaridagi shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash, bolalarning maktabgacha ta'lim bilan qamrab olinishini jiddiy oshirish va uning qulayligini ta'minlash, pedagog va mutaxassislarining malaka darajasini yuksaltirish; umumiy o'rta ta'lim sifatini tubdan oshirish, chet tillar, informatika, matematika, fizika, ximiya, biologiya kabi boshqa muhim va talab yuqori bo'lgan predmetlarni chuqurlashtirilgan tarzda o'rganish; olalarni sport bilan ommaviy tarzda shug'ullanishga jalb qilish, ularni musiqa va san'at olami bilan bog'lash maqsadida yangi bolalar sporti obyektlarini, bolalar musiqa va san'at maktablarini qurish, mavjudlarini rekonstruksiya qilish; kasb-hunar kollejlari o'quvchilarini bozor iqtisodiyoti va ish beruvchilarning ehtiyojlariga javob beradigan mutaxassisliklar bo'yicha tayyorlash hamda ishga joylashtirish borasidagi ishlarni takomillashtirish; ta'lim va o'qitish sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish asosida oliy ta'lim muassasalari faoliyatining sifati hamda samaradorligini oshirish, oliy ta'lim muassasalariga qabul kvotalarini bosqichma-bosqich ko'paytirish; ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini rag'batlantirish, ilmiy va innovatsiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish, oliy o'quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot institutlari huzurida ixtisoslashtirilgan ilmiy-eksperimental laboratoriyalar, yuqori texnologiya markazlari va texnoparklarni tashkil etish³ga alohida etibor qaratildi.

Jamiyat, xalq, millatning istiqboli ko'p jihatdan oilaviy munosabatlarning holatiga bog'liq. Har qanday millatning ma'naviyatini shakllanishida hech shubhasiz oilaning o'rni va ta'siri beqiyosdir. Bag'rikenglik, o'zaro mehr-oqibat, hurmat, halollik, mehnatsevarlik, ahillik, fikriy birdamlik, odoblilik, ahloqiy poklik, inoqlik, totuvlik, bilimga, kasb-hunarga intilish, o'z sha'nini asrash, kattalarga hurmat, kichiklarga izzat, qonunga to'g'ri kelmaydigan

³ 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha Harakatlar strategiyasi. lex.uz

<https://scientific-jl.com/>

har qanday nopok ishlardan saqlanish kabi insoniylik fazilatlari aynan oila muhitida shakllanadi.

O'zbekiston xalqlari oilasida inson shaxsining kamolati uchun ma'nan tarbiyaviy barkamollik negiz vazifasini o'taydi. Ota-bobolarimizdan meros qolgan saxiylik, mehmondo'stlik, rosgo'ylik, tantilik, sadoqatlilik, poklik, odoblilik fazilatlari milliy mintalitetimizning muhim jihati hisoblanadi. Ushbu xislatlarni ta'lim-tarbiya jarayonida yosh avlod ongiga yanada shakllantirish, ular ruhiyatini xalq durdonalari bilan boyitish, milliy qadriyatlarga e'tiborni ko'proq qaratish maqsadga muvofiqdir.

Komillik g'oyasining takomillashishi asosan ta'lim-tarbiya asosida kechadi. Ta'lim-tarbiyaning zamonaviy usullari asosida barkamol avlodlarni tarbiyalash sohasida uzluksizlikni ta'minlashning optimal vazifalarini takomillashtirish dolzarb ahamiyatga ega. Yoshlar tarbiyasini zamonaviy asosda, ilmiy-texnologik talablarni hisobga olib isloh qilish, takomillashtirish borasida olib borilayotgan ishlar uni bugungi kun ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, ilmiy va ma'naviy asosda shakllantirishni taqozo etmoqda.

Barkamol avlod tarbiyasi davrimizning kechiktirib bo'lmaydigan ishlaridan biridir. Komillik g'oyasi yoshlarda Vatanga, xalqqa bo'lgan e'tiqodini tarbiyalashga butun mohiyati va mazmuni bilan xizmat qiladi. Shularni inobatga olgan holda, bugungi kunning eng muhim vazifasi – yoshlar ongida milliy immunitetni shakllantirish, ularning ma'naviyatini boyitish, kelajakka ishonch ruhini singdirish, hayotga faol bo'lishlariga imkon yaratib berishdir. Davlatimiz tomonidan yoshlar tarbiyasini keng miqiyosda targ'ib etishga qaratilgan tadbirlar yoshlarda tom ma'nodagi vatanparvarlik tuyg'usini shakllantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T.: "O'zbekiston", 2018, 52 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 28 iyuldagi PQ-3160-son "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi

bosqichga ko'tarish to'g'risida" Qarori.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 apreldagi F-5465-son "O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida milliy g'oyani rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqishga doir chora-tadbirlar to'g'risida" Farmoyishi.

4. Borev Y. Estetika: Uchebnik. –Moskava: Visshaya shkola, 2002. – 511 s.

5. Gumelyov L. Drevniye tyurki. –Moskva: Ayris-press, 2016. – 560 s.

6. A. Guseynov. Filosofiya – misl i postupok: Stati, dokladi, leksii, intervyu. SPb.: SPbGUP, 2012. -848 s.